

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERISTETI

“TARMOQLAR IQTISODIYOTI”

KAFEDRASI

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 362.49:6P2.15.7:362(A)

XOLTURAYEV SALOXIDDIN SHAVKATOVICH

**HUDUDLARNING MAHALLIY BYUDJET MABLAG‘LARIDAN
SAMARALI FOYDALANISH YO‘LLARI**

**70310102 – Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)
mutaxassisligi bo‘yicha**

magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

D I S S E R T A T S I Y A

Ilmiy rahbar:

I.f.n., dots. A..Ismailov

TOSHKENT – 2023

Magistrlik dissertatsiya ishi “Tarmoqlar iqtisodiyoti” kafedrasida dastlabki himoyadan o‘tgan.

13 sonli bayonnoma « 27 » aprel 2023 y.

Ilmiy rahbar: i.f.n., dots. A.Ismailov

imzo

sana

Magistr: S.SH. Xolturayev

imzo

sana

Diccertatsiya ishi Iqtisodiyot fakultetida 2023 yil “30” 05
№ 3/26 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

“Himoyaga tavsiya etiladi”

“Tarmoqlar iqtisodiyoti” kafedrasini
mudiri, dots. I.Xotamov

“8” may 2023 yil

Himoya 2023 yil “31” 05 soat 10⁰⁰ da Toshkent davlat iqtisodiyot
universitetida bo‘lib o‘tadi.

ANNOTATSIYA

Ushbu magistrlik dissertatsiyasida mahalliy byudjet mablag'laridan samarali foydalanish prinsiplari tizimlashtirilgan, byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini xarakterlovchi indikatorlar tizimlashtirilgan, byudjet mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlashning hozirgi holati tahlil qilingan va ularni sarflash borasidagi asosiy muammolar hamda ularning kelib chiqish sabablarini o'rganilgan. Shu bilan birga tegishli ko'rsatkichlar tizimi orqali mahalliy byudjet xarajatlaridan foydalanish iqtisodiy samaradorligi baholangan, byudjet mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlashni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Davlat byudjetini takomillashtirish va samaradorligini oshirish masalalarida juda katta yutuqlarga erishilganiga qaramasdan, hamon bu yerda talaygina muammolar mavjudligi jumladan, davlat byudjeti daromadlari juda katta qiyinchiliklar evaziga shakllantirilayotganligi, hamma vaqt ham byudjet mablag'laridan maqsadli, oqilona hamda samarali foydalanilmayotganligi, ayrim holatlarda byudjet mablag'larini mansabdor shaxslar tomonidan o'zlashtirish va talon-taroj qilish hollari uchrayotganligi, byudjet defitsiti darajasini belgilangan meyorlar darajasida ushlab turish zarurligi va shu bilan birga byudjet jarayonining shaffofligini ta'minlash zarurligi ushbu dissertatsiya tadqiqotining dolzarbligini asoslaydi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat byudjeti iqtisodiy kategoriyasiga uning vazifalari va funksiyalarini bajarishi uchun zarur bo'lgan davlat mablag'larining asosiy markazlashtirilgan fondini shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish jarayonida vujudga keladigan obyektiv pul munosabatlari majmui sifatida qarash mumkin. Davlat byudjetining iqtisodiy kategoriya sifatidagi xususiyatlari yetarlicha o'rganilmaganligi va shu boisdan mazkur imkoniyatlarni to'liq bilmaganliklari sababli haligacha soha institusional darajada rivojlanmagan.

Kalit so'zlar: byudjet, byudjet tizimi, byudjet defitsiti, byudjet profitsiti, byudjetlararo munosabatlar tamoyillari, byudjet daromadlari, byudjet xarajatlari, byudjet jarayoni, byudjet nazoratini tashkil qilish.

ANNOTATION

In this master's dissertation the principles of effective use of local budget funds are systematized, the indicators characterizing the effectiveness of the use of budget funds are systematized, the current state of ensuring the effective use of budget funds is analyzed, and the main problems of spending them and their causes are studied. . At the same time, the economic efficiency of the use of local budget expenditures was evaluated through the system of relevant indicators, and scientific proposals and practical recommendations aimed at improving the effective use of budget funds were developed. Despite the fact that great progress has been made in improving and increasing the efficiency of the state budget, there are still many problems, including the fact that state budget revenues are formed with great difficulties, budget funds are not always used purposefully, rationally and efficiently, and in some cases, budget funds are not used, the cases of embezzlement and looting by officials, the need to keep the level of the budget deficit at the level of the established norms, and at the same time the need to ensure the transparency of the budget process justify the relevance of this dissertation research. World experience shows that the economic category of the state budget can be considered as a set of objective monetary relations that arise in the process of forming, distributing and using the main centralized fund of state funds necessary for the performance of its tasks and functions. Due to the fact that the features of the state budget as an economic category have not been sufficiently studied and, therefore, they are not fully aware of these opportunities, the field has not yet developed at the institutional level.

Key words: budget, budget system, budget deficit, budget surplus, principles of inter-budget relations, budget revenues, budget expenses, budget process, organization of budget control.

MUNDARIJA

KIRISH	8
1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	8
1.2. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.....	9
1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	10
1.4. Tadqiqotning obyekti va predmeti.....	11
1.5. Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	12
I BOB. ADABIYOTLAR SHARHI	13
1.1. Byudjet mablag‘laridan samarali foydalanish hamda resurslarni qayta yo‘naltirishning mazmun mohiyati.....	13
1.2. Byudjet mablag‘larini samarali foydalanishni rejalashtirish.....	19
1.3. Byudjet mablag‘larini samarali va oqilona taqsimlashni tashkil etish mexanizmlari.....	26
II BOB. METODOLOGIY	34
2.1. Ma‘lumotlar manbalari	34
2.2. Tadqiqot dizayni.....	34
2.3. Tadqiqotda qo‘llanilgan uslublar.....	35
2.4. Tadqiqotni o‘tkazish uchun zarur sharoitlar.....	36
2.5. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi.....	36
2.6. Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar.....	36
III BOB. TAHLIL VA NATIJALAR	38
3.1. O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston respublikasi byudjet tizimining amaldagi holati tahlili.....	38
3.2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti daromadlarida hududlarning ulushi va tartibga soluvchi daromadlar tahlili.....	44
3.3. Byudjet mablag‘larini samarali va oqilona foydalanish maqsadida resurslarni qayta yo‘naltirishdagi mavjud muammolar.....	62
3.4. Mahalliy byudjetlar daromadlari tarkibida mahalliy soliqlar va yig‘imlar ulushini ko‘paytirishning asosiy yo‘nalishlari.....	66
XULOSA	75
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	78

I.Kirish

1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. Har bir davlat o'z funksiyalarini muvaffaqiyatli bajarishi uchun, shuningdek, rivojlanishning har bir bosqichida dolzarb bo'lgan strategik maqsadlarni amalga oshirishi uchun mamlakatda yaratilgan moliyaviy resurslarning ma'lum bir qismini o'z qo'lida to'plamog'i obektiv zaruriyatdir. Aynan shu zaruriyat davlat byudjetining yuzaga kelishini va uni amalga oshirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida davlat moliyasi va uning muhim tarkibiy qismi bo'lgan davlat byudjeti alohida o'rin egallaydi. Tabiiy-geografik sharoiti bo'yicha O'zbekiston Markaziy Osiyodagi eng qulay mintaqalardan biridir. O'zbekiston Respublikasi katta ishlab chiqarish va mineral xomashyo salohiyatiga, noyob qishloq xo'jaligi, qayta ishlash jarayonida olinadigan salmoqli hajmdagi yarim tayyor mahsulotlar, boy tabiiy resurslarga, rivojlangan infratuzilmaga ega.

Davlatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan boshlab ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sari islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirib kelinmoqda. Davlat byudjeti iqtisodiyotda makroiqtisodiy boshqaruvning muhim vositasi bo'lib, uning samaradorligi hukumatning ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarga erishishdagi muvaffaqiyatlarini belgilaydi. Davlat byudjeti aholining hayotiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy va iqtisodiy siyosat va ustuvorliklarni amalga oshirish uchun vositadir.

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor vazifalarini bajarish, iqtisodiyotni barqaror va mutanosib rivojlantirish, jahon bozorlarida mustahkam o'rin egallash, shular asosida izehil iqtisodiy o'sishni ta'minlash, xalqimizning hayot darajasi va farovonligini yanada oshirish borasidagi vazifalarni to'liq va samarali amalga oshirish sharoitida davlat byudjetining amal qilish mexanizmlarini puxta o'rganish har qachongidan ham dolzarbdir. Davlat moliyasi tizimida faoliyat qiluvchi mutaxassislardan davlat byudjet munosabatini to'g'ri va samarali tashkil etish